Beshinchidan, hozirgi davrning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ekologik muammolarning globollashuvi, mintaqaviy ekologik masalalarning murakkablashganligidir. SHuning uchun ham yoshlar, shu jumladan bo'lajak pedagogik kadrlar ongida shaxs faoliyati mazmuni, uning ma'naviy-axloqiy tamoyillari, tabiatga mas'uliyatli yondoshuv, tabiiy boyliklarni saqlash, ulardan oqilona foydalanish hamda boyitishga oid tushunchalarni shakllantirish muammoning ijobiy echimini topishda bo'lajak o'qituvchilar ekologik madaniyatini shakllantirish muhim ijtimoiy-pedagogik kafolati sanaladi.

2 BOB. O'QUVCHI YOSHLARDA EKALOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI SHAKIL VA METODLARI.

2.1. O'quvchi yoshlarni ekalogik madaniyatini rivojlantirishning samarali usul va vositalari.

Insoniyat yangi axloqiy munosabatlar, yangi bilimlar, yangi mentalitet, yangi qadiryatlar tizmiga amal qilish zarur bo'lgan ostonaga qadam qo'ydik. Er yuzidagi barcha insoniyat o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiatga tasir etib uni xar tomonlama o'zgartirib yubordi. Fan-texnika taraqqiyoti davrida insonlar bilan tabiat o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlar yanada kuchayib ketdi odamlarni tabiat boyliklardan rejasiz xo'jasizlarcha foydalanganliklari sababli bu boyliklar tugay boshladi tabiiy xom ashyolarni qayta ishlash natijasida atrof-muxit ifloslana boshladi. Bunday xolatlar oxir oqibatda insonlar xayotiga salbiy ta'sir etmoqda. Natijada tabiat bilan insonlar o'rtasidagi tabiiy muvozanat buzildi boz ustiga tabiat o'zini-o'zi tiklay olmay, o'zini ximoyalash sog'lom, tabiiy muxitni asliga qaytarish borasida insonlar yordamiga muxtoj bo'lib qoldi. Tabiatning bunday ayanch navbatida inson faoliyati uchun zararli yangi ekalogik muamolarini yani atrof tabiiy muxitni sog'lomlashtirish va bu ishga masulyatliroq bo'lish muammolarini keltirib chiqarmoqda. Xozirgi davrida fan-texnika jadal suratlar bilan rivojlanayotgan bir paytda talim soxasida ekalogik madaniyatni qolaversa ekalogik talimni to'g'ri tashkil etish yangi pedagogik jarayonning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ta'limning umumiy maqsadlariga muvofiq talaba yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. „Ta'lim to'g'risida“gi qonunga muvofiq ekalogik ta'lim oldiga, ekalogik kansepsiysidan kelib chiqqan xolda, ekalogik ta'lim standartini ishlab chiqish vazifasini qo'ydi. Ushbu standart ekalogik ta'lim mazmunini belgilab berdi.

Ekalogik ta'lim kansepsiyasiga muvofiq ekalogik ta'limning yo'nalishi va maqsadi yosh avlodga chuqur ekalogik talim tarbiy berish asosiy tushunchalarni ular ongiga singdirish talaba yoshlarda tabiat va jamiyatga bo'lgan ijobiy masuliyatni munosabatini shakillantirish, ularni olimlarning ekalogiya soxasidagi erishgan yutuqlariga oid o'quv matiriallari bilan tanishtirib borish orqali ekalogik etiqotni yuzaga keltirish ko'zda tutuladi.

Ekalogik ta'limning mazmuniga xos asoslarni uch o'zaro bog'langan qismlar tashkil etadi;

-Ekalogik qonunlar,nazaryalar,ilmiy faktlarni bilish „Tabiat-inson” tizimi birlida ekanligini anglash;

-Tabiatni, uning inson munosabatini aks ettiruvchi badiiy timsollarini ematsional- estetik va axloqiy idrok etish.

-Rela ijtimoiy tabiiy vaziyatlarda ekalogik muammolarni xal etish bilan bog'liq faoliyat.

Xozirgi kunda respublikamizda ekalogik tarbiyaga etibor kuchaymoqda. O'zbekiston Respublikasi Kanstitutsiyasining 11-bobi 50-moddasida „Fuqorolar atrof tabiiy muxitga extiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar” deb etirof qilinishi ekalogik tarbiyaning maqsadi, axloq qoidalariga mos keluvchi va atrof muxit xolati uchun fuqorolik masulyatini xis etuvchi va o'z burchini sitqi dildan bajarishni taminlovchi ilmiy bilimlar, ekalogoik ong, ekalogik qarash va etiqodlar majmuasini tarkib toptirishdan iboratdur. Mystaqillik tufayli barcha ko'plab soxalarda o'zgarishlar yangilanishlar yuz bermoqda, ayniqsa ekalogik vaziyatga nisbatan xam yangicha yodashish, respublika fuqorolarning manfatlari yo'lida uni yaxshilashga qaratilgan samarali chora tadbirlarni ishlab chiqish va amalgam oshirish imkoniyatlari yaratildi bu tadbirlar oldidagi masulyatini to'la anglab yetadigan manaviy barkamol insonning shakillanishiga olib keladi, shu tariqa inson faqat tabiatdan oluvchi, istemolchigina emas, balki unung g'amxo'ri,fidoiysi kabi ezguliklarni o'ziga mujassamlashtiradigan shax darajasiga ko'tariladi.Natijada yosh avlod uchun zarur sog'lom turmush tarsi yaratiladi. Jamiyat ijtimoiy va ruxiy muxitlarning shakillanishi bevosita inson faoliyati bilan bog'liq. Sog'lom ijtimoiy muxitning yaratuvchisi xam inson. Bunda ta'lim-tarbiya muassalarining ro'li kattadir.

Bunda berilayotgan bilim xozirgi davr talabiga mos ravishda javob bera oladigan bo'lishi kerak. Sh u jumladan xozirgi ta'lim tarbiyoyada pedagogic texnologiyalarning ro'li katta. Pedagogika kollej o'quvchilarida dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanib o'tolsa maqsadga muvofiq

bo'ladi. O'quvchi yoshlarda ta'lim tarbiya taraqqiyoti o'sib borishi natijasida bilim malaka ko'nikmalar ham o'sib rivojlanib boradi. Shu tariqa o'quvchilarda ekalogik madaniyatni shakillantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanamiz. Insoniyat tarixi kishilarning turli shakllarda darajalarda o'zlari yashab turgan tabiiy muxitga bevosita hamda bilvosita munosabatlari tarixidir. Zero kishilar tarixi rivojlanishi darajalarining mezonini, ijtimoiy iqtisodiy manfaatlar, maqsadlar asosida tabiatni o'zgartirish va o'zlashtirish usullariga mos keladi. Insonning yashab turgan tabiiy atrof muxitga bolgan munosabatlari majmuasi faqat amaliy faoliyat bo'lmasdan balki manaviy qarashlarni ham o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, tabiatga nisbatan amaliy va nazariy munosabat dialektik bog'lanishda, aloqadorliklaridir. Bir tomondan insonning barcha amaliy faoliyati ongli faoliyatdir. Ikkinchi tomondan, amaliy faoliyatning natijalari nazariy bilimning asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham ularni bir-birlaridan ajratish mumkin emas. Yosh avlodni ilim marifatli bo'lish yo'lida turlicha yo'llarni ta'lim sohasida ishlab chiqilmoqda. Shu jumladan pedagogika kollejlari o'quvchilarga ekalogik madaniyatni shakillantirishda turli xil metod va vositalardan foydalanilmoqda. Bu esa hozirgi davr talabidir. O'quvchi yoshlarda ekalogik madaniyatni shakillantirish uchun turlicha kechalar va darsdan tashqari maruzalar ham o'tkaziladi. Pedagogik kollej o'quvchilarda

Ekalogik madaniyatni shakillantirishda quyidagilarga amal qilish zarur;

1. O'quvchilarning xislatiga ta'sir qilish, ular qalbida yoshlik chog'laridanoq tabiatga muxabbat tuyg'usini uyg'otish zarur.

2. O'quvchilar ongida tabiatni muxofaza etish va u bilan oqilona o'zaro ta'sir masalalarida faol xalqiy nuqtai nazarini shakillantirish. Uni insonning axloqiy etnik saviyasi darajasi tarzida tavsirlash mumkin. Jamiyatning har-bir a'zosi, bizning hozirgi kunlarimizda ham, uning tabiiy muxit xolatiga bog'liqligi kamayishi o'rniga tobora ortib borayotganini anglash zarur.

3. Ekalogik madaniyatni yuksaltirish ekalogik ta'lim olishni uzluksiz davom ettirishni taqozo etadi.

Kasb-xunar ta'limi muassasalari bitiruvchilari mustaqil kasbiy faoliyati jarayonida ijtimoiy tabiiy va texnikaviy fanlarni xam o'rganib borishlari lozim bo'ladi. Ekalogik madaniyatni shakillantirishda pedagogika kollejlarda ekalogika yo'nalishida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar xam yordam beradi. Kasb-xunar kollejlari o'quvchilari xayotiga mustaqil qadam qo'yganlarida tabiatning tabiatning bo'ysindiruvchisiga emas, balki uning „Ximoyachisi“ ga aylanishlari kerak.

2.2. Yoshlar global ekologik madaniyati yuksalishida ma'naviy qadriyatlardan foydalanish

Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi talaba – yoshlarda atrof – muhit va uning muammolari haqida ongli munosabatni hamda ular bo'yicha optimal echimlar topish to'g'risidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iboratdir.

Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun bir qator vazifalarni hal qilishga to'g'ri keladi.

1. Talaba – yoshlarimizga ekologik tarbiya berishda ularning yashab turgan joyi (tabiati) va boyliklarini tejab – tergashga, ularni ongli ravishda muhofaza qilishga o'rgatish.

2. Ekologik madaniyatni shakllantirish. Bu eng avvalo oiladan boshlanmog'i lozim. Bu haqda mazkur bobning birinchi paragrafida ma'lumot keltirildi.

Talaba – yoshlardagi ekologik madaniyatni shakllantirishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berilib borilmog'i lozim:

- atrofni ifloslantirish kishilarga kasalliklarini olib keluvchi manba bo'lishligiga;
- yong'in oqibatlarining tabiatga zarari va yong'in chiqmaslik chora – tadbirlarini ko'ra bilishlikka o'rgatish;
- “suvga tuflama, uni iflos qilma” degan da'vatning mazmun – mohiyatini bilishlikka;
- gullab turgan mevali daraxtning shoxini sindirmaslik, uning mevasidan insoniyat foydalanishligi hayotiy ehtiyoj ekanligi haqidagi bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga va shu kabilarga.

3. Ekologik savodxonlikni shakllantirish. Bunda talaba – yoshlarga ta'lim – tarbiya berishda hayotiy misollardan foydalangan ma'qul.

- dam olishga chiqilganda o't – o'lanlarning payhon qilinishi va bu joylarda shisha siniqlarining qolishi jamiyat, tabiat va kishilar salomatligiga ta'siri oqibatlari haqida talaba – yoshlar ongida tasavvurlarni shakllantirish;

- daraxtlar, o'simliklar olamiga va hayvonlarga nisbatan murosasizlik bilan munosabatda bo'lish oqibatlarining tabiat va jamiyatga zararli ta'sirini talaba – yoshlar ongiga singdirish;

- zavod va fabrikalardagi zararli chiqindilarning insoniyat taraqqiyotiga ta'sirini va uning oqibatlarini talaba – yoshlar ongiga singdirishning axborot – kommunikasion texnologiyalarini yaratishga erishish;

- ekologik tarbiyani bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashdagi barcha fanlarni o'qitishda olib borishga erishish;

- auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda va ekskursiya hamda sayohatlarda ekologik tarbiyani olib borish;

- fanlarni o'qitishda talaba – yoshlarga ekologik muammolarni o'rgatish orqali ularda tabiatni muhofaza qilish, uning boyliklaridan oqilona foydalanishga oid beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.

4. Talaba–yoshlarga ekologiya haqidagi tushunchalar va qonuniyatlar to'g'risida bilim berish. Bunda mehnat muhofazasi, tabiatni asrash, noyob jonzorlar ro'yxati, tabiat va atmosferadagi inqirozlar oldini olishga oid tushunchalar va qonuniyatlarga e'tibor beriladi.

Demak, talaba – yoshlar ekologik tarbiyasidan ko'zlangan maqsadlardan biri birinchi tamondan muqaddas Ona zaminimizni ozoda qilib saqlash bo'lsa, ikkinchi tamondan musaffo osmonimizni aslidagidek saqlashdan iborat. Bu ona diyorimizni obod etishga qo'shiladigan katta hissa bo'lib, uning yordamida talaba – yoshlarda obodonchilik va orastalik, pokizalik va tejamkorlik, xushxulqlik va xushmuomalalik kabi insoniy fazilatlar shakllanadi. Bular talaba – yoshlarda quyidagi ekologik qonuniyatlar va tushunchalarni ongli ravishda anglashni kafolatlaydi:

- tabiat haqidagi tushuncha, tabiiy muhit, tabiiy omillar va ular orasidagi bog'lanish;

- tabiat boyliklaridan tejab - tergab foydalanish va ularni muhofaza qilish;

- atrof – muhitni ifloslanishdan saqlash;

- tabiatni kelajak avlodlar uchun qanday bo'lsa, shundayligicha qoldirishga intilish va shu kabilar.

Uzoq tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbeklar ham jahondagi eng qadimiy xalqlardan hisoblanadi va ular jahon ilm – faniga, ma'naviy – ma'rifiy taraqqiyotiga katta hissa qo'shganligining guvohi bo'lamiz. Ota – bobolarimizning bu boradagi qoldirgan boy ma'naviy merosi, milliy merosimizni chuqur, har taraflama o'rganishimizga va u haqda xolisona fikr bildirishga hamda O'zbekiston mustaqilligiga erishuvida buyuk ma'naviy ozuqa bo'ldi yoki ota – bobolarimiz qoldirgan milliy qadriyatlarimizni tiklash va ularni targ'ib qilishga keng imkoniyatlar yaratildi.

“Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, ekologik tarbiyada xalq pedagogikasidan foydalanishga katta e'tibor berib kelinmoqda. Atrof – muhitni muhofaza etish, moddiy boyliklardan oqilona foydalanishga oid tarbiyani milliy qadriyatlar va an'analar, sharqona urf – odatlar orqali berish ehtiyoji paydo bo'ldi.

O'qituvchining bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berishda xalqimizning o'ziga xos milliy tarbiyasidan o'rinli foydalanishi yaxshi samara beradi. Milliy tarbiyamizda to'rt narsa, er, suv, tuproq, havo muqaddas hisoblangan. Xalqimiz juda qadim zamonlardan suvga e'tiqod qo'yib, yozning eng jazirama kunlarida “Suv sayli” o'tkazgan. Ota – bobolarimiz “Suv tabiat in'omi, hayot manbai”, deb bejiz aytishmagan. Har tomchi suvni gavhardek qadrlab, bog' – rog'lar yaratishgan. Biz esa suvdan xo'jasizlarcha foydalanishimiz natijasida Orol muammosining tug'ilishiga sababchi bo'ldik. Sirdaryo va Amudaryoning belgilangan erga to'la etib bormasligi natijasida bugun O'rta Osiyo uchun ahamiyatli bo'lgan Orolning butunlay yo'qolish xavfi bo'ldi”.⁹

Demak, talaba – yoshlarga ekologik tarbiya berishda milliy qadriyatlar, urf – odatlar, an'analar, marosimlar, nodir qo'lyozmalar va davlat arboblarning ushbu sohaga oid faoliyatlari mustahkam didaktik asos bo'lib, bular orqali ularni atrof –

⁹ Ziyomuhhammadov B. Pedagogika. Toshkent: Turon – Iqbol, 2006, - B. 112.

muhitni toza saqlashga, ozodalikka, pokizalikka va eng asosiy sog'lom turmush tarzi muhitini tashkil eta olishlikka o'rgatiladi.

Jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan taraqqiyoti darajasi undagi xalq xo'jaligining turli jabhalariga ta'sir etadi. Bu borada o'ziga xos global va mintaqaviy ekologik muammolar ham yuzaga kelaveradi. Bunda global muammolarga Orol fojiasi, Chernobil halokati, Xarosima va Nagasaki shaharlardagi bombo portlashlar hamda shu kabilar misol bo'la olsa, mintaqaviy muammolarga zavod va fabrikalardan chiqadigan zararli chiqindilar yoki ma'lum hududdagi tuproq erroziyasi, ba'zi kasalliklarning ko'payishi va shu kabilarni misol qilib olish mumkin.

SHu sababli ekologik tarbiya yo'nalishlari ham turli xil bo'ladi. Quyida ularning ba'zilar to'g'risidagi ma'lumotlarni keltiramiz:

1. Talaba – yoshlarni yashab turgan joyidagi tabiatimiz boyliklarini tejab – tergashga, uni muhofaza qilishga o'rgatish.
2. Talaba – yoshlarni o'z o'quv muassasalarini va uning tevarak – atroflarini ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish, mevali va manzarali daraxtlar ekishga o'rgatish.
3. Talaba – yoshlarda xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash ko'nikmalarini shakllantirish.
4. Ekologik dunyoqarashni yuksaltirish.
5. Ekologik madaniyatni shakllantirish.
6. Ekologik savodxonlikni yuksaltirish.
7. Talaba – yoshlar ongida atrof – muhit va uning shaxs ma'naviy dunyosiga ta'siri haqidagi tasavvurlarni shakllantirish.
8. Talaba – yoshlar ongida tabiat va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni haqidagi tasavvurlarni paydo qilish.
9. Talaba – yoshlarga ekologik tarbiya berishda o'quv muassasalari va oila o'rtasidagi umumiylik va xususiylik.
10. Talaba – yoshlar ongida atrof – muhit muhofazasida bolalarning vazifasi haqida tasavvur hosil qilish.

11. Talaba – yoshlar ongida tabiatni muhofaza qilishda ota – ona ibrat – namunasi haqidagi tasavvurlarni hosil qilish.

12. Talaba – yoshlarni oiladagi, o'quv muassasasidagi o'simliklar va hayvonot dunyosini e'zozlashga o'rgatish, jonivor va qushlarni parvarish qilishdagi bilim va ko'nikmani yuksaltirish.

13. Talaba – yoshlarga ekologik tarbiya berishda milliy an'ana va urf – odatlarni tiklashga e'tiborni qaratish.

14. Talaba – yoshlarga ekologik tarbiya berishda to'garaklardan foydalanish va ularda “Tabiat va inson”, “Ekologiya va inson”, “Orol madad so'raydi”, “Tabiatni e'zozlaylik”, “Suvni muqaddas deb bilaylik” va shu kabi mavzularda davra suhbatlari uyushtirish.

Ushbu yo'nalishlar bo'yicha ish olib borish orqali ota – bobolarimizning azal – azaldan tabiatga yuksak mehr va ehtirom ko'rsatishganligini talaba – yoshlar ongiga singdirish mumkin.

Talaba – yoshlarning ekologik savodxonligini oshirishda xalqimizning tabiatga munosabati: urug' qadash, qovun sayli, suv sayli, uzum sayli, hosil bayrami, Navro'z bayrami, xirmon to'yi, hovli to'yi va shu kabilarning ahamiyati katta.

Ta'kidlash lozimki, ekologik ta'lim umumiy ta'limning tarkibiy qismi bo'lib, uzluksiz xarakterga ega. Ekologiyaga oid materiallar har bir predmet, fan tarkibida, ko'p vaqt talab etilmagan holda o'quvchilarga o'rgatilishi zarur.

Talabalar va o'quvchilarga beriladigan ekologik ta'limni takomillashtirmasdan turib, uning boshqa muammolarini hal etib bo'lmaydi. SHu sababdan ham ekologik ta'lim-tarbiyaga e'tibor berish pedagogika fanining eng muhim ilmiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Ushbu ta'lim jarayonining natijasida talabalar ekologiyaga oid tushunchalar tizimiga ega bo'lishlari zarur. Talabalar ijtimoiy hayotda ishtirok etadi, ular atrof-muhitni kuzatayotib, ijtimoiy hodisalarni ko'rib shubhasiz ekologik tanglik holatlarni uchratadilar. SHu sababdan talabalarga integrasiyalashgan ekologik

ta'lim-tarbiya berish muhim pedagogik masaladir. Talabalarga beriladigan ekologik bilimlar mazmunini ilmiy-metodik jihatdan tanlash, o'rganish ketma-ketligini aniqlash, o'qitishning yangi forma va metodlarini ishlab chiqish, pedagogik tajribada sinab olingan natijani tahlil qilib, amaliyotga tadbiq etish muhim ilmiy pedagogik masalalar sirasidan hisoblanadi.

Inson tanasining sog'ligini ta'minlash ham ijtimoiy ekologik muammo echimlaridan biridir. SHuning uchun talabalarni tabiat va inson munosabatlarining uyg'unligi ta'minlangan tushunchalar asosida salomatlik qoidalariga o'rgatish ta'limning ajralmas qismidir. Talabalar bakalavriat va magistraturada o'qish jarayonida fanlardan integrasiyalashgan bilimlar majmuasiga ega bo'lishlari orqali badan tarbiya, hozirgi ekologik vaziyatga moslashuv to'g'risida ham ma'lumotlarga ega bo'ladi. Ta'lim tarbiyaning yana bir muhim tamoni talabalar zamonaviy bilimlar orqali globollashuv davrida uchrayotgan, jahondagi bir qator mamlakatlarga tarqalgan kasalliklar haqida ham ma'lumotga egadir. Bunday holat ekologiyaning transchegaraviy muammolarini chuqur tushuntirish lozimligidan darak beradi. SHunday sharoitda talabalar, bo'lajak pedagoglar e'tiborini ekologiyaning umubashariy holatlariga e'tibor qilishga undash amaliy ahamiyat kasb etadi. SHuningdek bo'lajak o'qituvchilarning ekologik tanglik mavjud bo'lgan mintaqalarda ishlash, tarbiyaviy jarayonni olib borish yoki doimiy yashashlari davrida ekologik holatning inson salomatligiga ta'siri haqida o'quvchilarga tushunchalar berishlari, sog'liqni saqlash xodimlari bilan hamkorlikda ekotadbirlar o'tkazish ishida faol ishtiroklari maqsadga muvofiq.

Talabalarga ayniqsa, darsdan tashqari tadbirlarda milliy qadriyatlar va ekologik tushunchalar uyg'unligini ta'minlashga e'tibor asosida tarbiyalash integrativ ekologik madaniyat shakllanishidagi muhim omillardan biridir. Bunday ekologik xarakterga ega bo'lgan tadbirlar tarkibiga muntazm badantarbiya, kundalik jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bilan shug'ullanish, yurtimizdagi rekreasiya obektlari imkoniyatlaridan samarali foydalanish kiradi.

Ta'kidlash lozimki, vatandoshlarimiz azaldan milliy sport turlari, tabiat unsurlaridan salomatlikni tiklashda unimli foydalanishni juda yaxshi bilishgan.

Mamlakatimiz xududida joylashgan 1448ta buloq suvlaridan ichimlik suvi sifatida foydalanishning inson salomatligi uchun qanday ahamiyatini doimiy suratda yoshlarimizga tushuntirish muhim amaliy ahamiyatga egadir. SHuningdek O'zbekistonliklarga xos odatlardan biri, chordona qurib o'tirishdir. Nega odamlar oyoqlarini bukib, chordona qurib o'tiradilar? Bu zaruratmi yoki odatmi? Bu odat tusiga aylangan zarurat. Kishi 45-50 yoshga borganda, ayniqsa 60-70 yoshlarida oyoq og'riq kasaliga, ya'ni poliartrit kasaliga muhtalo bo'ladi. Buning sababi oyoq tomirida va bo'g'imlarida tuz to'plana boradi, shamollaydi. Agar kishi har kuni ertalab va kechqurin 30-40 marta o'tirib tursa va oyog'ini 5-2 soat bukib o'tirsa, bu kasallikdan forig' bo'lib ketishi mumkin (bod kasali bundan mustasno). Chordona o'tirgan keksalarimizning oyog'im og'riydi, deb nolimasligining sabablaridan biri shundan. Bunday imkoniyatlar halqimiz

qadriyatlari tarixining oltin sahifalarida juda ko'plab uchraydi.

SHunday ekan ekologik tarbiya jarayonida va talabalar integrasiyalashgan ekologik madaniyatni shakllantirishda milliy qadriyatlarimiz imkoniyatlaridan foydalanish lozim.

2.3. O'quvchilarni ekalogik madaniyatini shakillantirishning natijalari.

Tatqiqot o'tkazish joyi Jizzax shaxar 2-Pedago'gika kollejida o'tkazildi.

O'quvchilarni ekalogik madaniyatini shakillantirishni aniqlash uchun turli xil so'raevnoma va aniqlovchi testlar o'tkazdik u 3 bosqichda olib borildi.

1-bosqich; Aniqlovchi tajriba u ikki yo'nalishda olib borildi.

1.Sharq mutafakkurlarining ekalogiyaga qo'shgan xissalari xaqida o'rganildi

2.Amaliyotni o'rganish.

2.O'quvchilarni „Ekalogik madaniyat”ni aniqlash. Ko'llej o'quvchilarini ish faoliyatlarini o'rganish ularni o'quv va kundalik ish rejalarini madaniy-marifiy ish rejalarini o'rgandik taxlil qildik.Biz „Tabiat bilan tanishtirishi uslubi va ekalogik ta'lim” dasturini o'rgandik. Dasturda bu fan 150 soat berilgan, shulardan 68 soat nazariy va 89 soat amaliy. Bu fan ikkinchi va uchunchi bosqichlarda o'qitiladi.¹⁰

2 bosqich; Kollej o'uvchilarida ekalogik madaniyatni tarbiyalash bo'yicha shakillantiruvchi tajriba;

Bu bosqichda maxsus ishlab chiqarilgan metodika asosida suxbatlar, muammoli mavzular va pedagogik o'yinlar o'tkazildi.

3. bosqich; Nazorat qilish bosqichi.

Nazorat bosqichida kollej o'quvchilari bilan ikkinchi marotaba test o'tkazildi.O'quvchilarni ekalogik madaniyat xaqidagi bilim darajalari bir-biriga solishtirib zaruriy xulosalar va metogik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot materyallari.

1. So'rovnoma, maqsad; O'quvchilarni ekalogik madaniyati xaqida tushunchalarini aniqlash.
2. Muammoli mavzuda maruza o'tkazish. Maqsad; O'quvchilarni ekalogik madaniyati xaqida bilimlarini chuqurlashtirish.
3. Pedagogik o'yin o'tkazish.
4. Ekalogiya bo'yicha bilimlarni mustaxkamlash maqsadida tast o'tkazish.

So'rovnoma.1

1. „Ekalogiya’’so'zining manosi?
2. Ekalogik muammolarning xillari?
3. O'zbekistondagi eng muxum ekalogik muammo nimaq?
4. Ekalogiya faniga xissa qo'shgan O'rta osiyo allomalarini aniqlaymiz?
5. „Ekalogik madaniyat’’ deganda nimani tushunasiz?

O'quvchilarni ekalogiya bo'yicha bilim darajalari quyidagi jadvalda aks etgan.

I-daraja 3ta

II-daraja 8ta

III-daraja 5ta

I-Daraja; Bu darajadagi O'quvchilar ekalogiya so'zining manosini ekalogiya muammolarini atrof muxitni muxofaza qilish zarurligini ekalogiya manosini nima ekanligini biladilar

II.Daraja; O'quvchilar yuqoridagilarni ng o'rta darajada bilimga egalar.

III.Daraja; O'quvchilar ekalogik talim xaqida umuman bilimga ega emaslar.

II-Bosqich; Bu bosqichda o'quvchilarni bilimlarini ekalogik madaniyatlarini shakillantirish uchun muammoli mavzuda maruza o'tdim.

Bu bosqichda o'quvchilarni tabiatga bo'lgan estetik munosabatlari rivojlandi, tabiat boyliklaridan to'g'ri foydalana olishga ularni qadirlashga o'rgandilar.

„Tabiat-inson jamiyatga” bir-biriga chambarchas bog'liqligi shu orqali inson voyaga yetib komil inson bo'lishi xaqida va ekalogik madaniyat xaqida bilimga ega bo'ladilar.

III-Bosqich. Nazorat qilish bosqichi.

Bu bosqichda o'quvchilarni bilmini tekshirish uchun ikkinchi marotaba test o'tkazildi.

Nazorat uchun test topshiriq.

1. Ekalogiya qanday fanlar qatoriga kiradi.
 - a) Tirik arganizimlar tizimi va ularning atrof muxit bilan o'zaro aloqasini o'rganadi.
 - b) Ijtimoiy fanlar qatoriga.
 - v) Bialagik fanlar qatoriga.
2. Ekalogik muammolarning turlari?
 - a) Maxalliy, glabal
 - b) Umumbashariy, mintaqaviy
 - v) Barchasi
3. Ekalogiyada eng ko'p tarqalgan uslub;
 - a) Modellashtirish
 - b) Tajriba
 - v) Tasvirlash
4. O'zbekistonda qaysi ekalogik muammoni umumbashariy deb qarash mumkin?

a)Orol va orolbo'yi

b)Sug'oriladigan yerlar

v)O'simlik va xayvonat dunyosini saqlash

5. Ekalogoya faniga xissa qo'shgan o'rta osiyo olimlari.

a)Al-Xorazmiy,Jayxoni

b)Beruniy,Bobur,Ibn Sino

v)Farg'onoy Maxmud ibn Vali

Jadvallar ishlash kerak

Jadval.4

№	O'quvchilarning F.I.	Savollar					Bilan darajasi
		I	II	III	IV	V	
1	O.Nargiza	+	-	+	-	-	II
2	A.Xilola	-	-	+	?	-	III
3	B.Sevara	+	+	+	+	-	II
4	Q.Ozoda	-	-	+	-	-	II
5	E.Shaxlo	-	-	-	?	-	III
6	Q.Shaxnoza	+	-	+	-	-	II
7	M.Masura	+	-	+	+	+	II
8	N.Gulnora	-	-	-	-	-	III
9	Yu.Sharifa	-	-	+	-	+	II
10	B.Gulsanam	-	-	+	+	+	II

11	X.Dilfuza	?	-	-	-	-	III
12	N.Gulchexra	-	-	-	-	-	III
13	D.Dilbar	-	+	+	-	-	II
14	M.Lola	?	-	+	+	-	II
15	E.Saida	-	+	+	-	-	II
16	Q.Maxbuba	+	+	+	+	-	II

O'quvchilarni shakillantiruvchi tajribacha va tajribadan keying bilim darajalarini solishtiruvch jadval

O'quvchilarni so'rovnoma bergan javoblarini taxlil qilish shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda ekalogik bilimlar chuqurlashgan va kengaygan, ular ekalogik madaniyat nima ekanini biladilar va bu bilimlarni amaliy jixatdan qo'llay biladilar.¹¹

Tajribalar asosida quydagilarni xulosa qilish mumkin.

- Oquvchilarda ekalogik madaniyatni tarbiyalash bu murakkab jarayondir.
- O'quvchilarda ekalogik madaniyatni tarbiyalash uchun o'qituvchi-pedagoglarni o'zlarida ekalogik bilim va ekalogik madaniyat shakillangan bo'lishi shart va zarur.
- O'quvchilarni ekalogik madaniyatini tarbiyalashyda maxsus ishlab chiqarilgan metodika asosida ish olib boorish zarur.
- Ekalogik madaniyatni tarbiyalashda suxbatdan, testlardan, baxs-munozaralardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

¹¹ To'xtayev.A, Xamidov.S,,,Ekalogiya asoslari va tabiatni muxofaza qilish'',Toshkent''1994-yil.

- O'quvchilarda tarbiyalangan ekologik madaniyatni amaliy jixatdan mustaxkamlash uchun pedagogik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

IKKINCHI BOBGA OID XULOSALAR

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini shakllantirish sharoitida yoshlar ekologik madaniyatini shakllantirish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga molik ilmiy pedagogik muammolar turkumiga kiradi.

Birinchidan, yoshlar jamiyatimiz ijtimoiy tizimida muhim o'rin egallaydi. Yoshlar global ekologik madaniyatining uyg'unlashuvi bevosita atrof - muhitni asrash, hududlardagi mavjud ekologik masalalar echimida maktab o'quvchilarining bevosita ishtirokiga ham bog'liqdir. Masalaning muhimligi shundan iboratki maktab o'quvchilari o'zlari yashayotgan hududlarda atrof - muhitni asrash, tabiat inomlaridan unumli foydalanishni boshlang'ich sinflarda o'tiladigan fanlar yordamida chuqur tushunchalarga ega bo'ladilar. SHu bilan birgalikda ta'kidlash lozimki, o'quvchilarda ekologik madaniyatning shakllanishida oilaning o'rni muhimdir. O'quvchilar ota - onasi, katta yoshdagi oila a'zolari yordamida tabiatga ijobiy munosabatda bo'lish, uning in'omlaridan unumli foydalanish lozimligini o'rganadilar.

Ikkinchidan, tabiat, fasllar almashuvi, atrof - muhitdagi o'zgarishlar muntazamligi, bioxilmaxillikning almashib turishi, erning inson hayotidagi ahamiyati, atmosfera havosining inson faoliyatidagi o'rni va boshqa ekologik masalalar, ularning mohiyati, vujudga kelish, rivojlanishi masalalari haqidagi tushunchalar o'quvchilarga oilada tushuntiriladi.

Uchinchidan, oila a'zolari tamonidan dastlab o'quvchiga suvdan foydalanish madaniyati singdiriladi. Suvni asrash, uning hayotbaxsh imkoniyatlari haqidagi ilk ma'lumotni o'quvchi o'z ota - onasidan oladi. Oilada o'quvchilar ekologik madaniyatining shakllanishida oila a'zolari ishtirokida halq bayramlariga tayyorgarlik ko'rish, ularni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar ham muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. SHu jumladan "Navro'z", "Mustaqillik kuni" kabi

umumxalq bayramlariga tayyorgarlik jarayonida o'tkaziladigan tadbirlar majmuiga kiruvchi obodonlantirish, ko'kalamzorlashtirish ishlari ko'lamida o'quvchilar oila a'zolari bilan birgalikda muntazam ishtirok etadi.

To'rtinchidan, xalqimizning udumlari tarkibida to'ylar muhim o'rin egallaydi. Oilada o'tkaziladiga to'y tomoshalar, tug'ilgan kun va boshqa oilaviy bayramlar arafasida turar joylar tartibga keltiriladi, dasturxon bezatilib tabiat in'omlari bilan to'ldiriladi. Tantana o'tkaziladigan joylar gullar bilan bezatiladi va bu jarayonlarda o'quvchilar oila a'zosi sifatida qatnashadi. Bunday holat o'quvchilarda ekologik madaniyatning shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

Beshinchidan, oilada o'quvchilarda ekologik madaniyatning shakllanishida televidenie orqali ko'rsatilayotgan tasvirlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Teleko'rsatuvlar orqali o'quvchilar mamlakatimiz hududida sodir bo'layotgan ekologik qiyinchiliklar yoki ularni bartaraf etish bo'yicha olib borilayotgan amaliy ishlarnining mazmuni bilan tanishmoqdalar. Oiladagi televidenie ko'rsatuvlari tufayli bolalar mamlakatimizning betakror tabiati, tabiiy resurslarining umumiy holati, hayvonat va o'simlik dunyosi haqidagi ma'lumotlar bilan tanishishadi.

XULOSA.

Milliy istiqlol mafkurasi va manaviyatimiz, milliy mafkuramizni yuksatirish shu kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib, uni yoshlar qalbi va ongiga singdirish, ta'lim tarbiyaning turli shakllari orqali amalga oshiriladi. Avvalo „Ta'lim to'g'risida“gi qonun va „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“da komil insonni shakllantirish dolzarb masala qilib qo'yildi. Bu masalani hal qilish ayniqsa ta'lim jarayonini tarbiyaviy tomonlarga ayniqsa vatanparvarlik, insonparvarlik, axloqiy, xuquqiy, estetik xolda ekalogik madaniyat tarbiyasiga etibor kuchayib bormoqda.

Ekalogik madaniyatni talaba yoshlarga singdirishda ta'lim tizimi barcha oila, maktab va keng jamoatchilik xam muxim sanaladi. Demak komil inson tarbiyasini uzoq vaqt davom etdigan murakkab jarayon talaba – yoshlarda tabiatga borliq va ona zaminga nisbatan mexir muxabbat va g'amxorlik xislarini uyg'otish, ularga ekalogik madaniyat tushunchasini singdirish muxim sanaladi. Ekalogik madaniyatni tarkib top[dirishda qadriyatlar xam muxim omil bo'lib xizmat qiladi.

U inson va biosfera munosabatlarini tartibga soluvchi vosita ekanligi aniqlandi. Qadriyatlar to'la manoda rivoj topib, ma'lum darajada unga tayangan xolda ekalogik madaniyat tushunchasi sayqal topib boradi. Ekalogik madaniyatni tarbiya axloqiy tarbiyaning ajralmas qismi xamdir. Talaba yoshlarda ekalogik ong va mafkurani, ekalogik dunyoqarashni xosil qilish tabiatni dialektik tushunishga yordam beradi. Bizningch ekalogik muammolarni yechimini yechishda yoxud bu vazifani bajarish birinchidan; moddiy ishlab chiqarishning texnik va texnologik jarayonlarini ekalogik talablar asosida tashkil etish'

Ikkinchidan; Axolining ekalogik faolligini va masulyatini oshirishning xuquqiy asosini mustaxkamlash;

uchunchidan; ekalogik monitoring soxasida davlat va nodavlat tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish xamda ekalogik ong va madaniyatning rivojlanish darajasiga bog'liq. Anashu jixatdan qaraganda ekalogik muammoni

bartaraf qilishda talaba yoshlarni ekalogik madaniyati, ongini rivojlantirish eng samarali usullardan biridir.

Xulosa qilib aytganda yoshlarda ekalogik madaniyatni shakillantirishda xususan ta'lim tarbiyaning qirralardan jumladan, ekalogik talim tarbiya, ekalogik ong, ekalogik qadiryatlar, ekalogik madaniyat kabi ko'rinishlardan samarali foydalanish amaliyotda yoshlarning faolligiga, siyosiy yetukligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, siyosiy iqtisodiy, ijtimoiy va talim islohatlarining muvoffaqiyatli bajarilishini taminlaydi. Shu o'rainda atoqli yozuvchi Chingiz Aytmatovning „Manasning qanotli tulporida“ nomli maqolasidan quydagi satirlarni keltirib o'tishni lozim topdik.

„Agar inson bolalik chog'laridanoq, o'z tarbiyasining ilk bosqichlardan boshlab tabiat bilan oshno tutunsa, men ishonch va umid bilan ayta olamanki u yoshi ulg'ayib, faol mexnat quchog'iga kirgan paytlarida xam befarq vakilga aylana olmaydi, uning tabiat muxofazasi xaqida, tabiatga oqilona munosabatda bo'lish borasida targ'ibot tashviquotning sira keragi bo'lmaydi, uning o'zi bu ishga manaviy jixatdan tayyor bo'ladi. Tabatni asrab avaylash va sevishga o'rganish mening nazarimda, yosh ishchi avlodning tarbiyalash masalasinung en insonparvar jixatlaridan biridir“

TAKLIFLAR

Birinchidan global ekologik holatlarning oldini olish uchun nazorat xizmatlarini takomillashtirishni va atrof-muhitni transchegara ifloslanishlaridan respublika hududlarini himoya qilish, tabiat obektlari zaxarlanishi, shu jumladan zaharli radioaktiv moddalar va ionlashtiruvchi nur tabiiy manbalari tarqalishi, infeksiya va boshqa o'ta xavfli kasalliklar tarqalishi, ekologik zararli texnologiyalar va mahsulotlarni olib kirishdan himoyalash bo'yicha birlamchi kompleks choralar ko'rish lozim.

Ikkinchidan, ekologik ofatlar. Favqulodda falokatlar, vaziyatlar va avariya oldini olish hamda oqibatlarini bartaraf etishni takomillashtirish zarur. Tabiiy va texnogen xususiyatdagi favqulotda vaziyat sharoitlarida tez harakat qilish tizimini takomillashtirish, avariya-qutqaruv xizmatlarini, zamonaviy moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash zarur. Tez harakat qilish tizimi O'zbekiston Respublikasi FVV (Favqulodda vaziyatlar vazirligi) doirasidagi monitoring idora tizimlari bilan yaqin axborot aloqalariga tayanishi (avtomatlashtirilgan axborot-boshqaruv tizimini yaratish, transchegara xavfi va kelib chiqishini hisobga olish bilan O'zbekiston Respublikasi hududida mumkin bo'lgan ekologik falokatlar xarita istiqbollari ishlab chiqish) va me'yoriy- huquqiy baza bilan mustahkamlanishi kerak.

Uchinchidan, O'rta Osiyo mintaqaviy ekologik xavfsizlik tizimini shakllantirish dardkor. O'rta Osiyo mintaqaviy xavfsizlik tizimi birinchi navbatda tabiatdan foydalanish, bioxilma-xillikni saqlash, atrof - muhit va axoli salomatligini muhofaza qilish sohasi mintaqaviy hayotiy muhim manfaatlarini, ustunliklari va integrasiya strategiyasini aniqlash asosida global-mintaqaviy ekologik xavflarni oldini olish va hal etish vazifasini bajarishi kerak. Buning uchun ekologik xavfsizlik sohasida O'rta Osiyo mamlakatlari hamkorlikdagi harakatlari jarayonini aniqlashtirish lozim. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi harakatlar milliy resurslarini muvofiqlashtirish, transchegara ekologik muammo kelib chiqishi va xavfini aniqlash, turlarini ajratish imkonini beruvchi yagona axborot-tahliliy tarmog'ini yaratish, ularni uzluksiz monitoringini amalga oshirib borish zarur.

To'rtinchidan, aholining ekologik ta'lim-tarbiya va madaniyat tizimini rivojlantirish va takomillashtirish talab etiladi. Jamiyatning ekologik madaniyatini oshirish, mutaxassislarni professional tayyorlash maqsadlarida, ekologik kompleks davlat dasturi asosida, umumiy kompleks va uzluksiz ekologik ta'lim-tarbiya tizimi o'rnatiladi. Ommaviy axborot vositalari shu ishda katta ahamiyatga egadir.

Beshinchidan, ekologik muammolarni hal etishda jahon hamjamiyati bilan hamkorlikni chuqurlashtirish ijobiy natijalar beradi.

Ushbu yo'nalishning maqsadi O'zbekiston Respublikasi ekologik xavfsizligiga ichki va transchegara xavflarni aniqlash, ularni murakkablik hamda dolzarbligi darajasi bo'yicha ajratish, samarali amal qilib kelinayotgan hamda mumkin bo'lgan xalqaro tashabbuslar, dasturlar va loyihalarni inventarizasiya qilish va baholashni o'tkazish yo'li bilan "O'zbekiston - jahon hamjamiyati" o'zaro aloqalari samarasini oshirish hisoblanadi. Ekologik xavfsizlik bo'yicha xalqaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari, iqlim o'zgarishining oldini olish, Orol va Orol bo'yi muammosini hal qilish, landshaftlar cho'lga aylanishi, tabiiy va texnogen xususiyatlarining buzilishi, hududlarni transchegara ifloslanishini oldini olish bo'yicha choralar ishlab chiqish, suv resurslaridan mintaqaviy foydalanish, infeksiya va boshqa o'ta xavfli kasalliklar tarqalishi masalalarini hal etish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. I.A.Karimov., „O'zbekiston kelajagi buyuk davlat'' Toshkent, O'zbekiston 1992-yil
2. I.A.Karimov. „Bizdan ozod va obod vatan qolsin'' Toshkent. 1994-yil
3. I.A.Karimov. „O'zbekistonning o'z istiqlool va tarraqiyot yo'li'' O'zbekiston 1994-yil
4. I.A.Karimov., Yuksak manaviyat yengilmas kuch'' Toshkent. Manaviyat. 2008-yil.
5. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risida'' giqonuni. Toshkent, „Sharq'' 2001
6. „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi'' Toshkent. O'zbekiston. 1997-yil
7. Ziyomuxammadov.B. Abdullayev.Sh., „Ilg'or pedagogic texnologiya'' nazariya va amaliyoti „Manaviyat asoslari'' darsi asosida ishlangan uslubiy qo'llanma. Toshkent. 2001-yil
8. Farobiy „Fizil odamlar shaxri'' Toshkent. 1991-yil.
9. At-termiziy., „Xadislar'' „Sharq yulduzi'' 1990-yil.
10. Imom Islom Al-Buxoriy., „Al-adab al-mufrat'' (Odob durdonalari) Toshkent. 1991-yil.
11. Xoshimov.Q Safo Ochil. „O'zbekiston pedagogikasi antalogiyasi'' Toshkent „O'quvchi'' 1995-yil.
12. „Shu aziz vatan barchamizniki'' Axmad Xo'ja „Toshkent'' 1995-yil.
13. Xosilov va boshqalar., „Vatan va millat muqaddasdir'' Toshkent, „O'quvchi'' 1996-yil.
14. Musurmonova.O., „O'quvchilar manaviy madaniyatini shakillantirish'' Toshkent 1993-yil.

- 15.Nigmatov.,„Ekalogiya nima’’2002-yil.
- 16.To’xtayev.X. „Ekalo’giya’’ Toshkent „O’qtuvchi’2001-yil.
- 17.Mirzacomil Ismoiliiy. „Inson odobi’’ Toshkent 1989-yil.
- 18.Kaykovus „Qobusnoma’’Toshkeny „O’qtuvchi’’1986-yil.
- 19.To’xtayev.A.Xamidov.A. „Ekalogiya asoslari va tabiatni muxofaza qilish’’Toshkent 1994-yil.
- 20.,„Kasb xunar kollejlari uchun tajribaviy dastur’’ Toshkent 1999-yil.
- 21.Turdiqulov.E.O. Musayeva.M. „Tomchi suvda xayot jilosi’’Toshkent 2001-yil.
- 22.Ibodulla Xolliyev. Abduvaxobov.I.,„Ekalogoya’’ oquv qo’llanma „Talqin’’2004-yil
- 23.Ziyomuxamedov Bo’ri. „Ekalogiya va ma’naviyat’’ o’quv qo’llanma 1997-yil.
- 24.Abdirqulov.Q.I. „Ijtimoiy ekalogiya’’ o’quv qo’llanma 2004-yil.
- 25.G’ulomov.G.N. „Inson va tabiat’’ „O’qtuvchi’’1990-yil.
- 26.,„Maktabgacha tarbiya pedago’gikasi’’ F.Yusupov.

ILOVALAR

Ilova- 1

Berilgan so'rovnomalar asosida talaba-yoshlarning ekologik bilim va malakalar tushunchasi o'rganildi. Olingan tadqiqotlar natijasida quyidagi holat aniqlandi.

№	O'quvchilarning F.I.	Savollar					Bilan darajasi
		I	II	III	IV	V	
1	O.Nargiza	+	-	+	-	-	II
2	A.Xilola	-	-	+	?	-	III
3	B.Sevara	+	+	+	+	-	II
4	Q.Ozoda	-	-	+	-	-	II
5	E.Shaxlo	-	-	-	?	-	III
6	Q.Shaxnoza	+	-	+	-	-	II
7	M.Masura	+	-	+	+	+	II
8	N.Gulnora	-	-	-	-	-	III
9	Yu.Sharifa	-	-	+	-	+	II
10	B.Gulsanam	-	-	+	+	+	II
11	X.Dilfuza	?	-	-	-	-	III
12	N.Gulchexra	-	-	-	-	-	III
13	D.Dilbar	-	+	+	-	-	II
14	M.Lola	?	-	+	+	-	II
15	E.Saida	-	+	+	-	-	II

16	Q.Maxbuba	+	+	+	+	-	II
----	-----------	---	---	---	---	---	----

“+” To’liq javob

“-”Javob to’liq emas

“?”javob yo’q

Ilova - 2

Olingan natijalar shuni ko’rsatadiki, haqiqatdan ham talabalarni ekalogik madaniyatini shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati yuqori ekanligi aniqlandi bu esa ta’lim samaradorligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Jadval №2

O’quvchilar soni	Ekalogiya bo’yicha bilim darajasi		
16 ta	I	II	III
	18,7 %	43,7%	37,6%

Ilova №1

Talabalarni ekologik madaniyatini oshirishda foydalanilgan metodlar.


suhbat
munozara
Bahs-munozara
Innovasion texnologiya
Anketa so'rovnoma
Test
trening
Savol-javob
An'anaviy ta'lim
Noanaviy ta'lim

Talabalarni ekologik madaniyati shakllantirishning innovasion usullari




Ilova №3

Talabalarni ekologik madaniyatini shakllantirishda qo'llaniladigan samarali
metodlar



Talabalarning ekalogik madaniyatini shakllantirishda jazo metodlaridan foydalanishni ahamiyati alohida ekanligi aniqlanadi.



Berilgan so'rovnomalar asosida talaba-yoshlarning ekalogik bilim va malakalar haqidagi tushunchasi o'rganildi. Olingan tadqiqotlar natijasida quyidagi holat aniqlandi.

Jadval №3

№	O'quvchilarning F.I.	Savollar					Bilan darajasi
		I	II	III	IV	V	
1	O.Nargiza	+	+	+	-	+	I
2	A.Xilola	+	+	+		+	II
3	B.Sevara	+	+	+	+	-	I
4	Q.Ozoda	+	+	+	+	-	I
5	E.Shaxlo	+	-	+		+	II
6	Q.Shaxnoza	+	+	+	-	-	II
7	M.Masura	+	+	+	+	+	I
8	N.Gulnora	-	-	+	-	-	III
9	Yu.Sharifa	-	-	+	+	+	II
10	B.Gulsanam	-	-	+	+	+	II
11	X.Dilfuza		+	-	+	+	III
12	N.Gulchexra	-	-	+	-	-	I
13	D.Dilbar	+	+	+	+	+	II
14	M.Lola		+	+	+	-	I
15	E.Saida	+	+	+	+	+	I
16	Q.Maxbuba	+	+	+	+	-	I

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, haqiqatdan ham innovasion usullardan foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati yuqori ekanligi aniqlandi bu esa talaba – yoshlarni ekalogik madaniyatini oshirishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Jadval №4

O'quvchilar soni	Ekalogiya bo'yicha bilim darajasi		
16 ta	I	II	III
	38,5 %	50%	12%

O'quvchilarni shakllantiruvchi tajribagacha va tajribadan keyingi bilim darajalarini solishtiruvchi jadval

Jadval №5

So'rovnoma	O'quvchilar soni	Ekalogiya bo'yicha bilim darajasi		
		I	II	III
		Yuqori	O'rta	Past
I tekshiruv	16	36,7 %	43,7 %	37,6 %
II tekshiruv	16	38,5 %	50%	12%

**O'zbekiston Respublikasida chiqindilar ko'miladigan joylar bo'yicha
ma'lumot (01.01.2010 yil holati bo'yicha)**

	Qattiq maishiy chiqindi- xonalar soni	Shamo- to'plagichlar soni	Kul- shlak to'pla- gichla r	Madanlarni qayta ishlashdan hosil bo'ladigan chiqindilarni ko'mish joyi	Zaharli ximikatlar va qabristoni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	17				1
Andijon	14			1	1
Buxoro	14	1		1	1
Jizzax	10			1	1
Qashqadaryo	17			1	1
Navoiy	9	2		10	1
Namangan	12	2		1	1
Samarqand	13	2		1	1
Surxandaryo	17	6			1
Sirdaryo	9				1
Toshkent v.	19	4	2	4	1
Farg'ona	15	4	2	2	1
Xorazm	9				1
Jami	175	21	4	22	13

